



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**“Tabiiy fan”, “Tarbiya”, “Informatika va axborot texnologiyalari” fanlaridan
dars beradigan pedagog kadrlarning malaka toifalarini belgilash
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2024-yil 16-apreldagi 30/1-1782-sonli topshirig‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2024-yil 16-apreldagi 30/1-1782-son topshirig‘i asosida:

a) “Boshlang‘ich ta‘lim” o‘qituvchilari boshlang‘ich sinflarda “Tabiiy fan (Science)”, “Tarbiya” va “Informatika va axborot texnologiyalari” fanlari bo‘yicha;

“Geografiya”, “Biologiya” va “Fizika” fanlari o‘qituvchilari 5-6-sinflarda “Tabiiy fan (Science)” fani bo‘yicha;

“Tarix”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va huquq” mutaxassisligiga ega o‘qituvchilar 5-11-sinflarda “Tarbiya” fani bo‘yicha dars o‘tishlariga ruxsat berilganligi;

b) “Tabiiy fan (Science)”dan dars beradigan “Boshlang‘ich ta‘lim”, “Geografiya”, “Biologiya” va “Fizika” fanlari o‘qituvchilariga amaldagi malaka toifasiga mos ravishda;

5-11-sinflarda “Tarbiya” fanidan dars beradigan “Tarix”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va huquq” mutaxassisligiga ega o‘qituvchilarga “Tarbiya” fanidan malaka toifasi bo‘lmagan hollarda amaldagi malaka toifasiga mos ravishda haq to‘lanishi;

Bunda, “Tarbiya” fanidan dars o‘tish huquqiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarda bir vaqtning o‘zida “Tarbiya” hamda tegishli fanlardan malaka toifalari bo‘lsa, bunda “Tarbiya” fanidan dars berganda faqatgina ushbu fan bo‘yicha malaka toifasi tatbiq etiladi va mos ravishda haq to‘lanishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-son qarori bilan belgilangan, oliy malaka toifa (bosh o‘qituvchi lavozimi)ga ega bo‘lganidan so‘ng oliy malaka toifani 15 yil davomida saqlab kelgan va uzluksiz ish stajiga ega bo‘lgan

pedagog kadrlar navbatdagi majburiy attestatsiyaga jalb etilmaslik tartibi 2022-yil 2 avgustga qadar 15 yillik uzluksiz ish stajiga hamda oliy malaka toifaga ega (bunda oliy toifaga ega bo'lganlik davri muhim emas) bo'lgan pedagoglarga nisbatan tatbiq etilmasligi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi 312-son qarorining 9-bandida keltirilgan talablarni ikkinchi xorijiy til pedagoglariga nisbatan tatbiq etilmasligi inobatga olinsin.

3. Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Raximboyev) **2024-yil 1-dekabr**ga qadar amlaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga topshiriqdan kelib chiquvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini ta'minlasin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2024-yil 16-apreldagi 30/1/1782-son topshirig'ida keltirilgan bandlar ijrosini tegishli xodimlarga yetkazish va o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirish choralarini ta'minlasin.

5. Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) zarur hollarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan talabnomalariga muvofiq tegishli mablag'larni moliyalashtirish choralarini ko'rsin.

6. Devonxona (D.Isxakova) o'rnatilgan tartibda ushbu buyruqni tegishli tarkibiy bo'linmalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklansin.

Vazir

Toshkent sh.,
2024-yil " 27 " -may,
168-son



X.Umarova